



“TASDIQLAYMAN”

**Samarqand viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i**

Sh. Abdiyev

4 aprel 2025-yil

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasining Aholi turmush darajasi va
ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi to‘g‘risida**

NIZOM

1 bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Samarqand viloyati statistika boshqarmasi Aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi bo‘limining (keyingi o‘rinlarda Bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PF-27-son Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Milliy statistika qo‘mitasi hamda Samarqand viloyat statistika boshqarmasining (keyingi o‘rinlarda Boshqarma deb ataladi) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Milliy statistika qo‘mitasining qaror va buyruqlariga, “Samarqand viloyati statistika boshqarmasi to‘g‘risida”gi Nizom, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo‘lim Vazifalar taqsimotiga muvofiq, bo‘lim faoliyatiga xalqaro tavsiyalar, shu jumladan, sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etishda ishtirok etadi.

Bo‘lim aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi kuzatuvlari va hisobotlari masalalari bo‘yicha faoliyatini Boshqarmaning tarkibiy bo‘linmalari, hamda mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini Boshqarma boshlig‘i rahbarligida amalga oshiradi.

6. Bo‘lim o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

2 bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi kuzatuvlari qismi va hisobotlari bo'yicha statistika ishlari dasturini ishlab chiqarish dasturida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

b) aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi bo'yicha so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni, hisobotlari qabul qilish va o'tkazishni ta'minlash;

v) aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi kuzatuvlari va hisobotlari bo'yicha Samarqand viloyatidagi eng muhim ijtimoiy va iqtisodiy hodisa va jarayonlarning dastlabki statistik tahlillarini olib borish;

g) ishonchli davlat statistika ma'lumotlarini taqdim etishda uy xo'jaliklari respondentlariga har tomonlama ko'maklashish, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirishda ishtirok etish, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini joriy etish;

d) aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi kuzatuvlari bo'yicha olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligi, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlash;

e) ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va innovatsiya, madaniyat va turizm sohalari bo'yicha biriktirilgan Statistika hisobotlarini belgilangan muddatlarda sifatli taqdim etilishini nazorat qiladi, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ular asosida jamlanma ma'lumotlar jadvallarini shakllantirish, asosiy statistik ko'rsatkichlarni hisoblash ishlarini amalga oshiradi.

c) aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi kuzatuvlari va hisobotlari bo'yicha Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida ommaviy axborot vositalarida diagrammalar va grafiklarni keng namoyish qilish, statistik nashrlarga ko'rsatkichlarni vizuallashtirishning ilg'or usullarini joriy etish yo'li bilan alohida statistik ko'rsatkichlar to'g'risida aholini xabardor qilish bo'yicha choralarni ko'rish.

8. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi kuzatuvlari va hisobotlari bo'yicha belgilangan ishlarning to'liq va muddatlarida bajarilishini ta'minlaydi;

Bo'limga taaluqli bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko'rib chiqadi va ulardagi masalalarni hal qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi kuzatuvlari sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistika

axborotlarini yig'adi, qayta ishlaydi, to'playdi, saqlaydi, umumlashtiradi, tahlil qiladi va e'lon qiladi;

aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi kuzatuvlari va hisobotlar bo'yicha ko'rsatkichlarning ishonchliligini, xolisligini va kompleksligini ta'minlaydi;

Bo'lim yillik statistika ishlari Dasturida ko'zda tutilmagan boshqa kuzatuvlar va tadqiqotlarda ishtirok etadi.

3 bob. Bo'limning huquqlari va majburiyatlari

9. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda – ularning vakolatxonalari va filiallaridan) belgilangan tartibda statistik hisobotini olish hamda undan statistik maqsadlarida foydalanish;

Boshqarmaning tarmoq bo'limlaridan o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

Boshqarma rahbariyatiga aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi uy xo'jaliklari kuzatuvlari, ijtimoiy soha hisobotlarining samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritish;

milliy statistika sohasida me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish va takomillashtirishda, statistik kuzatuvlar metodologiyasi va metodikasini ishlab chiqishda takliflar berish;

milliy statistika ishlarini ishlab chiqish Dasturiga asosan statistika ishlarini o'z muddatlarida bajarilishini ta'minlash;

Bo'limning vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Boshqarmaning bo'limlari bilan yo'riqnoma berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazish;

aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi kuzatuvlari va hisobotlari bo'yicha kuzatuv hamda hisobot shakllarining to'liqligini ta'minlash, yig'ish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Bo'lim faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar va yig'ilishlarda ishtirok etish.

10. Bo'lim quyidagilar uchun majbur:

o'ziga yuklatilgan vazifalarning lozim darajada va samarali bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

Bo'lim xodimlari tomonidan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.

4 bob. Bo'limning tarkibi

11. Bo'lim tarkibiga bo'lim boshlig'i, bo'lim boshlig'i o'rinbosari, bosh mutaxassis va mutaxassislar kiradi.

12. Bo'lim ishiga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

13. Bo'lim boshlig'i, bo'lim boshlig'i o'rinbosari, bosh mutaxassis va mutaxassislar boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

5 bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

14. Bo'lim faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonun, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturi, Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Milliy statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi to'g'risidagi Nizom, mazkur Nizom, Milliy statistika qo'mitasi raisining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek Milliy statistika qo'mitasining ish rejalari, Boshqarmaning ish rejalari, Bo'limning ish rejasi va bo'lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'limning ish rejasi boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan boshqarmaning ish rejalari asosida shakllantiriladi.

Xodimlarning funksional vazifalari bo'lim boshlig'i tomonidan bo'limga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.